

REMINISSENSIYA – ADABIY XOTIRA VA INTERTEKSTUAL
MULOQOT IFODASI

Rayxon Jumanazarova Jaloliddinovna

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada reminissensiya hodisasining ilmiy-nazariy asoslari, adabiyotshunoslikdagi o'rni, badiiy asarlardagi estetik funksiyalari va uning madaniy xotirani ifodalovchi intertekstual mexanizm sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, reminissensiyaning tarixiy falsafiy ildizlari, tipologiyasi, badiiy misollardagi ifodalanishi va zamonaviy adabiy jarayondagi roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: reminissensiya, intertekstuallik, adabiy xotira, stilistik ishora, ironik kontekst, badiiy tasvir, Platon, estetik qatlam.

Аннотация: В статье анализируются научные и теоретические основы феномена реминисценции, ее роль в литературоведении, эстетические функции в произведениях искусства, ее значение как интертекстуального механизма репрезентации культурной памяти. Также освещаются историко-философские корни реминисценции, ее типология, ее выражение в художественных примерах и ее роль в современном литературном процессе.

Ключевые слова: реминисценция, интертекстуальность, литературная память, стилистическая аллюзия, иронический контекст, художественный образ, Платон, эстетический слой.

Annotation: This article analyzes the scientific and theoretical foundations of the phenomenon of reminiscence, its role in literary studies, its aesthetic functions in works of art, and its significance as an intertextual mechanism representing cultural memory. It also highlights the historical and philosophical roots of reminiscence, its typology, its expression in artistic examples, and its role in the modern literary process.

Keywords: reminiscence, intertextuality, literary memory, stylistic allusion, ironic context, artistic image, Plato, aesthetic layer.

Kirish. Bizga ma'lumki, har bir davrning o'ziga xosliklari, avvalo, o'sha davrdagi adabiy jarayonlar, estetik qarashlar va ma'naviy izlanishlar orqali ifoda etiladi. Insoniyat qalbi hamisha adabiyot bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Qaysi davrda, qanday ijtimoiy-siyosiy holatda yashamasin, inson she'r, qo'shiq yoki tasviriy san'at vositasida o'z ruhiy kechinmalarini ifodalagan, shu orqali o'ziga estetik va madaniy hordiq baxsh etgan. Aynan shu ma'naviy ehtiyoj asosida yaratilgan adabiy asarlar o'zaro bog'liq bo'lib, ular orasida ichki muloqot, g'oyaviy yoki obrazli murojaatlar, madaniy va tarixiy merosga qaytish holatlari tez-tez uchraydi.

Adabiyotshunoslik bunday hodisalarni tahlil qilishda reminissensiya tushunchasiga tayangan. Lotin tilidagi reminiscentia — “esga olish”, “xotirlash” ma'nosini anglatuvchi bu

atama nafaqat adabiyotshunoslikda, balki falsafa, san'atshunoslik va madaniyatshunoslik kabi gumanitar fanlar tizimida ham keng qo'llaniladi. Reminissensiya – bu muallifning o'z matni orqali boshqa bir tarixiy, diniy, madaniy yoki adabiy kontekstga ongli ishora qilishi, ya'ni o'tmish manbalar bilan zamonaviy matn o'rtasida ko'rinmas, ammo mazmunan boy aloqalarni tiklash usulidir.

Reminissensiyaning falsafiy ildizlari: Platon qarashi

Falsafa fani fanlar otasi sifatida e'tirof etiladi. Bu fan donishmandlik so'zi bilan chambarchas bog'langandir. Reminissensiya tushunchasi ham birinchi navbatda falsafa fanida o'rganiladi. Falsafiy kontekstda reminissensiya tushunchasining ilk nazariy asoslari qadimgi yunon faylasufi Platon ta'limotida uchraydi. Unga ko'ra, bilish jarayoni aslida yangi bilim orttirish emas, balki ruhning ilgari bilgan narsasini esga olishidir. "Menon" va "Faydon" dialoglarida bu g'oya ilmiy asoslangan holda ifodalanadi: inson ruhi abadiy bo'lib, u ilgari mavjud bo'lgan bilimlarni eslash (ya'ni reminissensiya) orqali haqiqatga yetadi. Bu yondashuv adabiyotda reminissensiyaning ichki falsafiy mohiyatini tushunishda muhim nazariy zamin yaratadi.

Adabiyotshunoslikda reminissensiyaning shakllanishi.

Bizga tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, adabiyotshunoslik fanida reminissensiya tushunchasi XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan boshlab jahon adabiyotida faol qo'llanila boshlandi. Xususan: Rus formalistlari (V. Shklovskiy, B. Eyxenbaum),

Fransuz strukturalistlari (R. Bart, Y. Kristeva), M. M. Baxtin kabi tadqiqotchilar bu hodisani matnlararo bog'liqlik (intertekstuallik) doirasida tahlil qildilar.

Yuliya Kristeva reminissensiyaning intertekstuallikning bir ko'rinishi sifatida baholab, har bir matn boshqa matnlar bilan muloqotda bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa adabiy ijodda o'zaro aloqadorlik va madaniy izchillikni anglatadi.

Reminissensiyaning badiiy asarlardagi funksiyalari.

Reminissensiya badiiy asarda muallif va o'quvchi o'rtasidagi intellektual suhbat, madaniy muloqot, falsafiy va estetik qatlamlarning uyg'unlashuvi uchun xizmat qiladi. Bu usul quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1.Ma'no chuqurligini oshirish.

Bunda reminissensiya yordamida asar ma'naviy qatlamlar bilan boyiydi. O'quvchi ilgari o'qigan asar bilan yangi kontekstda "uchrashib", yangicha talqinni idrok etadi. Misol: Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanida Sharq mumtoz she'riyati, Qur'oniy iboralar, xalq afsonalariga murojaat qiladi.

2.Madaniy merosni eslatish va mustahkamlash.

Ijodkor mashhur obraz yoki matnga ishora qilgan holda madaniy xotirani tiklaydi va o'quvchini milliy qadriyatlar bilan bog'laydi.

Misol: Muhammad Solih she'rlarida Alisher Navoiy, Fuzuliy satrlariga ishoralar milliy ruh uyg'otadi.

3.Ironiya va parodiya yaratish.

Reminissensiya ba'zan kinoyaviy, tanqidiy kontekstda qo'llaniladi.

Misol: I. Ilf va E. Petrovning “O'n ikki stul” romanida Gogol asarlaridan yashirin iqtiboslar mavjud.

4. Intertekstual muloqot vositasi sifatida.

Reminissensiya boshqa matnlar bilan bevosita yoki bilvosita “dialog” o'rnatadi.

Misol: O'tkir Hoshimov romanlarida xalq maqollari, Qur'on oyatlari, dostonlar reminissensiya shaklida ifodalanadi.

Reminissensiyaning turlari

Adabiyotshunoslikda reminissensiya quyidagi tiplarga ajratiladi:

1. Tematik reminissensiya. Mavzu yoki g'oya boshqa asarni eslatadi. Bu turda misol sifatida “O'tkan kunlar”da milliy uyg'onish g'oyalarini tahlil qilish mumkin.

2. Obrazli reminissensiya. Qahramon yoki timsol tanish arxetipni takrorlaydi. Bulgakovdagi Begemot – folklor mushugi timsoli sifatida qaraladi.

3. Stilistik reminissensiya. Bu turda uslub, sintaksis yoki frazeologik o'xshashlik yuzaga keladi. Pushkin va Lermontov o'rtasidagi uslubiy o'xshashliklarni misol sifatida tahlil qilish mumkin.

4. Sitata reminissensiyasi. Bu holat matnda yashirin iqtiboslar keltirilish bilan xarakterlanadi. Misol sifatida Muhammad Yusuf she'rlarida Boburdan satrlar keltirilgan holatni aytib o'tish mumkin.

Xulosa.

Reminissensiya — bu oddiy adabiy o'xshashlik emas, balki muallifning o'z asarini madaniy, tarixiy va falsafiy kontekstlarga bog'lash uchun ongli tarzda qo'llagan ijodiy mexanizmdir. U orqali matnning ko'p qatlamli mazmuni yaratiladi, madaniy izchillik va xotira tiklanadi, o'quvchining tafakkur olami kengayadi. Bugungi zamonaviy adabiyotda reminissensiya intertekstualityaning faol shakli sifatida o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, aksincha, estetik va ma'naviy jihatdan yuksak matnlar yaratishdagi zarur vositaga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedova H. Umid soyasi.-T.: Nihol, 2008
2. Ahmedova H. Erk darichasi.-T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996
3. Ahmedova H. Yashil.-T.:O'zbekiston, 2016
4. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari.- Samarqand: 1994
5. Salohiy D. Alisher Navoiy poetik uslubining tadrijiy takomili (g'azallar matnlarining qiyosiy tahlili asosida). – fil.fanl.dokt... diss.avtoreferati. – Toshkent, 2001.

www.eng.wikipedia.org

www.ru.wikipedia.org

www.uz.wikipedia.org